ISSN: 2180-2130
VOL.1, ISSUE 1
IYUN (2022)

TERGOV HARAKATLARINI AMALGA OSHIRISHDA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARI KAFOLATLARI

Andijon davlat universiteti Pedogogika instituti
Gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Huquq ta'limi) magistiri
Temirov Doniyorbek Odiljon o'gli

Annotatsiya: Mazkur maqolada so'roq qilish tergov harakatining asosiy qoidalari, ushbu tergov harakatining natijalarini rasmiylashtirish tartibi hamda jinoyat ishlarini tergov qilishdagi ahamiyati yoritiladi. Surishtiruvchi va tergovchilar tomonidan so'roq qilish orqali dalillarga ega bo'lishning asosiy usullari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: jinoyat tartibi, tergov harakati, inson huquqlari, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, qonuniylik dalillar maqbulligi.

O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat ishlarini yuritish tartibi Jinoyat protsessual kodeksi bilan belgilanadi. Jinoyat ishlarini yuritishning ushbu Kodeksda belgilangan tartibi barcha sudlar, prokuratura, tergov, surishtiruv organlari, advokatura, shuningdek fuqarolar uchun yagona hamda majburiydir. So'nggi yillarda mamlakatimizda shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlarida taraflarning tortishuv tamoyili qo'llanilishini yanada kengaytirish hamda ushbu sohada xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani joriy etishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi.Bunga misol qilib Qonun ustuvorligini ta'minlash bilan bog'liq vazifalar 2017 yil 7 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida muhim masalalardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Qonun ustuvorligi shaxsga o'z huquq va erkinliklarini mone'liksiz amalga oshirish, o'z hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari qonunan kafolatlanganligi tufayli tinch, osoyishta, xotirjam, hech qanday tashqi ta'sirlardan, zo'ravonlik va o'zboshimchalikdan qo'rqmay yashash imkoniyatini beradi.Qonun ustuvorligi shuningdek shaxsga uning uchun majburiy bo'lgan mazkur hujjatlarni qabul

ISSN: 2180-2130
VOL.1, ISSUE 1
IYUN (2022)

qilish jarayonida uning o‘zi yoki saylab qo‘ygan vakillari orqali ishtirok etish, davlat boshqaruviga ta’sir o‘tkazish, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqini ta’minlaydi.

Mamlakatimizda jinoyat ishlarini tergov qilish faoliyatini xalqaro standartlar va ilg’or xorijiy tajribani inobatga olgan holda yaxshilash, qonun ustuvorligi va javobgarlikning muqarrarligi printsiplarini ro’yobga chiqarish, jinoyat-protsessual qonunchiligini yanada takomillashtirish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirilib kelinmoqda. Sud-huquq tizimining demokratik asoslarini yanada chuqurlashtirish, milliy qonunchilik asoslarini shakllantirish, jinoyatchilikka qarshi kurashning zamon talablari darajasida olib borilishini ta'minlash, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, bu borada inson huquq va erkinliklari hamda himoyasini ta'minlash muhim omil sifatida e'tirof etildi.

Prezidentimiz tomonidan «O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-prosessual kodekslariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonun imzolandi. Hujjatga muvofiq, O‘zbekistonda jinoyat ishlarida himoyachi ishtirok etishi shart bo‘lgan holatlar ko‘rib chiqildi va kengaytirildi: shaxs amalda ushlangan yoki uni ushlash bilan bog‘liq tezkor-qidiruv tadbiri yakunlangan paytdan boshlab u bilan bog‘liq prosessual harakatlar amalga oshirilgunga qadar himoyachi bilan xoli uchrashishi ta’minlanadi; tezkor-qidiruv faoliyatni amalga oshiruvchi organlar tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchidan arizalar, tushuntirishlar va ko‘rsatuvlar olish surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan faqat himoyachi ishtirokida amalga oshiriladi (himoyachidan voz kechilgan hollar bundan mustasno).

Kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, ushlab turish muddati shaxs amalda ushlangan paytdan e’tiboran ko‘pi bilan 48 soatni tashkil etishi belgilangan (ilgari ushbu muddat

ISSN: 2180-2130
VOL.1, ISSUE 1
IYUN (2022)

shaxs ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organga keltirilgan vaqtdan boshlab hisoblangan). Himoyachi ishtirok etishi shart bo‘lgan holatlar toifasiga quyidagilar kiritilgan:

dastlabki eshituv o‘tkazilayotgan ishlar;

o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarga oid ishlar;

shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash masalasi ko‘rib chiqiladi.

Qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g’ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo’llash jinoyati natijasida jabrlanuvchiga (fuqaroviy da’vogarga) yetkazilgan mulkiy va ma’naviy ziyonni qo

plash to’g’risidagi da’volar ham jinoyat protsessida ko’riladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, jinoyat ishlarini tergov qilishda so'roq tergov harakatini jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga rioya qilgan holda o'tkazilishi va inson huquq va erkinlilarini kamsitmagan va buzmagan holda sof odilona holda olib borilishi kelgusida ish uchun ahamiyatli bo'lgan dalillarni qo'lga kiritilishi va olingan dalillarning maqbul bo'lishiga xizmat qilib, jinoyatlarni tez va to'la ochish hamda jinoyat sodir etgan har bir shaxsni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga va eng asosiysi esa haqiqatni aniqlanishiga erishish mumkin bo'ladi.

Foydanaligan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev qaror va farmonlari
2. O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi
3. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz) 2020 yil 10-avgust
4. jinoyat protssesiual kodeksi
5. Wikepediya.
6. Het.uz
7. Regulation.gov.uz